

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA ZONIMLARNING METAFORIK QO'LLANILISHI: LINGVOKOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL

Jumanazarova Shahodat

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

schachodatt07@gmail.com

Tel: +998 93 861 23 07

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida zoonimlarning metaforik ishlatilishi lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida taqqoslangan holda ko'rib chiqiladi. Zoonimlar orqali hosil bo'ladigan metaforalar insonning xarakteri, ijtimoiy xulq-atvori va axloqiy bahosini ifodalovchi muhim semantik-pragmatik vosita sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotda metaforik ko'chirish mexanizmlari, konnotativ ma'no qatlamlari va madaniy omillarning ahamiyati batafsil yoritiladi. Olingan natijalar zoonimik metaforalarning har ikkala tilda ham antropotsentrik xususiyatga ega ekanligini, ammo ularning semantik hajmi va baholovchi yuklamalari jihatidan farq qilayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: zoonim, metafora, konseptual metafora, lingvokulturologiya, taqqoslamali tilshunoslik, nemis tili, o'zbek tili.

Аннотация: В этой статье проводится анализ метафорического использования зоонимов в немецком и узбекском языках с сопоставительным подходом, основываясь на лингвокогнитивной и лингвокультурной теории. Метафоры, создаваемые с помощью зоонимов, рассматриваются как значимый семантический и прагматический инструмент для выражения личностных черт, социального поведения и моральной оценки человека. Исследование освещает механизмы метафорического переноса, коннотативные значения и роль культурных факторов. Полученные результаты показывают, что зоонимические метафоры в двух языках имеют антропоцентрическую направленность, но отличаются своим семантическим содержанием и оценочной значимостью.

Ключевые слова: зооним, метафора, концептуальная метафора, лингвокультурология, сопоставительное языкознание, немецкий язык, узбекский язык.

Abstract: This article presents a comparative examination of the metaphorical application of zoonymic units within the German and Uzbek languages through the lenses of linguocognitive and linguocultural approaches. The metaphors derived from zoonyms are analyzed as significant semantic and pragmatic tools for conveying human traits, social conduct, and moral judgments. The research emphasizes the processes of metaphorical transfer, the layers of connotative meaning, and the influence of cultural elements. The results indicate that zoonymic metaphors in both languages are centered on human perspectives; nonetheless, they vary in terms of semantic breadth and evaluative implications.

Keywords: zoonym, metaphor, conceptual metaphor, linguoculturology, comparative linguistics, German language, Uzbek language.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda metafora nafaqat badiiy tasvir vositasi sifatida, balki inson tafakkuri va dunyoni idrok etishining asosiy kognitiv mexanizmi sifatida ham tushunilmoqda. Ayniqsa, hayvon nomlari – zoonimlar asosida shakllangan metaforalar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yorqin ko'rsatib beradi. Inson o'zini va atrofini baholashda ko'pincha hayvonlar olamidan foydalanadi, bu esa til birliklarining antropotsentrik tabiati sifatida tasdiqlanadi. Nemis va o'zbek tillarida zoonimlarning metaforik qo'llanilishi uzoq tarixiy rivojlanishning natijasi bo'lib, xalq mentaliteti, turmush tarzi va madaniy stereotiplari bilan chuqur bog'liqdir. Ushbu maqolada zoonimik

metaforalarning nazariy asoslari batafsil ko'rib chiqilib, ularning nemis va o'zbek tillaridagi o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – nemis va o'zbek tillarida zoonimlarga asoslangan metaforik birliklarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish hamda ularning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashdir.

Metafora qadimdan beri tilshunoslik va falsafada muhim tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda. An'anaviy yondashuvda metafora so'zning ma'nosining o'zgarishi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, zamonaviy kognitiv tilshunoslikda u fikrlash jarayoni sifatida baholanadi. J. Lakoff va M. Johnson metaforalarni insonning abstrakt tushunchalarni real tajriba orqali anglash uchun vosita deb belgilaydi. Ushbu nuqtai nazardan, zoonimik metaforalar "HAYVON – INSON" konseptual modeli asosida yuzaga keladi. Ushbu modelda hayvonlarga xos belgilarning inson xarakteriga o'tkazilishi va baholovchi semantika shakllanishi amalga oshiriladi.

Metaforik birliklar faqat semantik o'zgarish bilan cheklanmay, balki muhim pragmatik funksiyani ham amalga oshiradi. Zoonimik metaforalar nutq jarayonida baho, kinoya, tanqid yoki maqto'v ma'nolarini ifodalashda foydalaniladi. Ayniqsa, odamni hayvon nomi bilan chaqirish nutq ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy aloqani belgilovchi muhim faktor bo'ladi.

Masalan, nemis tilidagi „Er ist ein Fuchs“ ifodasi kontekstga qarab musbat (zukk) yoki salbiy (hiyla) ma'noda tushunilishi mumkin. O'zbek tilidagi "Tulki odam" ifodasi ko'pincha yomon ma'noga ega. Zoonimlar leksik tizimda hayvonlar nomlarini ifodalovchi birliklardir, ularning ko'pincha ikkilamchi – metaforik ma'nosi bo'ladi. Metaforik zoonimlar leksik-semantik jihatdan baholovchi, ekspressiv va emotsional rangga ega bo'lishi bilan farqlanadi. Zoonimlarning metaforiklashuvi quyidagi faktorlar asosida sodir bo'ladi:

- hayvonning tashqi qiyofasi;
- xulq-atvor va an'analari;
- madaniy ramziy tasvir;
- xalq og'zaki ijodidagi tasavvurlar

Zoonimlar hayvonlarga tegishli nomlarni ifodalovchi leksik birliklardir va ular tilning eng qadimiy qatlamlaridan birini hosil qiladi. O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkirlaridan biri Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida hayvon nomlari bilan bog'liq lexemalar mavjud. XI asr filologi Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad Koshg'arining "Devonu Lug'otit turk" asarida xalq og'zaki ijodiga doir 300 dan ziyod she'riy bo'laklar, 291 ta maqol va misollar keltirilgan. Ushbu matnlarda 200 ga yaqin zoonimlar, shuningdek, 100 ga yaqin qushning nomi mavjud. Professor Bahrom Bafoyev XV asrning mutafakkiri A.Navoiy asarlaridagi til o'ziga xosligi uchraydigan 76 ta qoramol, yovvoyi katta shoxlarga ega hayvonlar; 71 ta chorvachilikka doir; 94 ta qush ismi; 41 ta o'zbek, tojik va arab tillaridan kelib chiqqan bilan bog'liq bo'lgan kichik hayvonlarning nomlari; 7 ta suvda yashovchi jonivor nomlarini ifodalash uchun ishlatiladigan so'z-islmlarni aniqlaydi. Olimning "Qadimgi so'zlar tarixi" asarida zoonimlarga oid alohida bob mavjud bo'lib, u to'rt qismdan tashkil topgan: 1-qismda chorvachilik sohasidagi hayvonlarning nomlari; 2-bo'limda yirtqichlar nomlari; 3-bo'limda sudraluvchilar; 4-bo'limda qushlar dunyodagi vakillar nomlari qayd etiladi.

Hayvonlar nomlarini o'rganish bilan XVII–XVIII asrlarda Sharq olimlari ham shug'ullangan holda, ulardan biri Muhammad Chingiydir. Muhammad Chingiy –Hindistonda Muhammadshoh Olamgir Abdulmuzaffar Muhiddin davrida yaratilgan "Kelurnoma" leksikografik asarining muallifi deb hisoblanadi. Kitob chig'atoy-fors tillarining ideografik lug'ati XV bob va 343 qismdan (fasliy) iborat bo'lib, xarakteriga ega. Muhammad Chingiy kitobining so'nggi IX bobi hozirgi til lug'atini o'rganishga qaratilgan. Turkolog M.V.

Porxomovskiy o'z monografiyasida birinchi marta mahalliy va jahon turkologiyasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlab zamonaviy to'plamlargacha, umumiy 6000 atrofida turkiy maqollarning to'plami jamlanishini lingvistik jihatdan o'rganib chiqqan. Alohida bob turkiy maqollarning lug'aviy tarkibining tahlili bilan bog'liq bo'lib, uning natijalari nafaqat turkshunos va paremiologlar, shuningdek, etnolingvistik va turkiy tilshunoslar ham qiziqtiradi.

Ishning qo'shimcha qismida 335 ta turk maqolining rus tilidagi tarjimasi ham mavjud. Taniqli turkolog A.M.Shcherbak qo'chqor so'zini deyarli barcha turkey tillarda turli fonetik variantlar, qadimgi yozma yodgorliklarda ham mavjud, deb guvohlik beradi va bu leksemaning to'liq shakli Mahmud Koshg'ariyning asarida ko'rsatilganidek, konchig'or shakliga ega bo'lishi, qo'chqor leksemasining asosini "olovli" (koch kozu – "olovli qo'zi") ma'nosidagi "jasur", "dadiy" semalarini tashkil etish haqida mulohaza yuritadi.

N.A. Samoylovich o'z ilmiy tahlilida oltoy ayollari aytishi mumkin bo'lmagan hayvonlarning 42 ta nomini keltiradi. Masalan, qozoq, qirg'iz xotinlari erlari va ularning aka-ukalari otlariga qo'shilgan bo'ri, qo'y, qo'zi so'zlarini aytmalik natijasi o'laroq, ular nutqidan quyidagi gaplar yozib olingan:

Oquvchi (daryo)ning qarama-qarshi tomonida ko'karadigan (qamish)ning ostida ulovchi (bo'ri)ning tagida ma'rovchi qo'yning bola(qo'zi)sini yeb yotibdi. E.A.Agayan arman qishloqlarida ilon so'zini arqon, kanat so'zlari bilan almashtirilib foydalanilganligi haqida ma'lumot taqdim etadi.

Zoonimlarning metaforiklashuvi natijasida ikkilamchi nomlanish paydo bo'ladi va so'z yangi ma'no qatlamiga ega bo'ladi. Zoonimik metaforalar semantik guruhlariga bo'linishi mumkin: aqllilikni ifodalaydigan zoonimlar (tulki, eshak / der Fuchs, der Esel); axloqiy bahoni ifodalovchi zaif so'zlar (it, qo'y / der Hund); kuch va agressiyani ifodalovchi so'zlar (bo'ri / der Wolf); zaiflik va itoatkorlikni tasvirlovchi hayvonlar (qo'y / das Schaf).

Lingvokulturologiya til birlashmalarini madaniyat bilan chuqur aloqada o'rganadi. Zoonimik metaforalar xalqning hayvonlar to'g'risida qadimiy tushunchalari, mifologik fikrlari va axloqiy standartlarini ifodalaydi. Shu bir xil hayvon nomi turli tillarda turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Kognitiv tilshunoslikda zoonimik metaforalar inson tafakkurining tasnifi bilan bog'liq faoliyati asosida izohlanadi. Inson o'z bilgan hayvonlar xislatlari yordamida murakkab psixologik ahvolni izohlaydi. Natijada metafora til orqali ifoda etilish bilan birga, tafakkur modeli sifatida ko'rinadi.

Masalan:

INSON – TULKI → hiyla-nayrang, moslashuvchanlik;

INSON – BO'RI → tajovuz, ustunlik;

INSON – QO'Y → ehsonberlik, nafaollik.

Bu modellar ikki tilda mavjud bo'lishiga qaramay, ularning semantik kuchi va baholovchi xususiyati farq qiladi. Zoonimik metaforalar ko'pincha ifodali va sub'ektiv baholarga ega bo'ladi. Aynan, insonni hayvon qilib atash nutq madaniyati nuqtai nazaridan ehtiyotkorlikni talab qiladi. O'zbek tilida bunday metaforalar ko'proq salbiy baho bilan bog'langan bo'lsa, nemis tilida ular nisbatan neytral yoki yumshoqroq ko'rinishda ishlatiladi.

Nemis tilida zoonimik metaforalar og'zaki so'zlashuv, publitsistika va badiiy asarlarda keng tarqalgan. Quyidagi namunalar buni tasdiqlaydi:

1. der Fuchs (tulki)– ayyor, zukko odam

Er ist wie ein Schlaukopf, hat stets einen witzigen Plan im Hinterkopf. (U ayyor, doimo aqlga muvofiq loyiha tuzadi.)

2. der Esel (eshak)– fahmsiz, ahmoq odam

Manchmal verhält er sich wie ein Dussel und begreift nichts.

(Ba'zan u g'ayrioddiy harakat qiladi va hech narsani anglamaydi.)

3. die Schlange (ilon)— makkor, ikkiyuzlama xarakter

Achtung, er ist eine Schlange und könnte dich betrügen.

(Ehtiyot bo'l, u sehrgar va seni chalg'itishi mumkin.)

4. der Bär (ayiq)— jiddiy, lekin ba'zan kishiga mehribon

Er ist ein Bär, manchmal rau, doch im Inneren liebevoll.

(U qattiq, ba'zan sakrashli, lekin yuragi bilan mehribon.)

5. die Maus(sichqon) – tortinchoq, muloyim shaxs

Sie ist eine kleine Maus, stets leise und freundlich.

(U sokin mushuk kabidir, har doim tinch va nazokatli.)

Nemis tilida zoonimlar ko'pincha ijtimoiy va psixologik xususiyatlarni ifodalashda rol o'ynaydi. Lekin o'zbek tilidagi zoonimik metaforalar asosan baholash va tarbiyaviy mohiyatga ega. Masalan:

eshak –fahmsiz, jahldor shaxs;

qo'y – yuvosh, irodasiz shaxs;

it – pastkash yoki qattiqqo'l inson;

bo'ri – rahm-shafqatdan mahrum, qudratli inson;

tulki – hiyla-nayrang bilan harakat qiluvchi shaxs.

1. Bo'ri: Metaforik ma'no: kuchli, qo'rqmas, ba'zan xavfli shaxs.

Misol: U ishxonada bo'ri kabi qat'iyatli edi. (bu yerda "bo'ri" shaxsning qat'iyatini va jasoratini ifodalaydi)

2. Fil: Metaforik ma'no: katta, sabrli, ba'zan sekin, og'ir harakat qiluvchi.

Misol: U fildek sabrli odam, hech qachon shoshilmaydi.

3. Sher: Metaforik ma'no: jasur, mard, yetakchi.

Misol: Sher kabi do'stlarimizni himoya qiladi.

4. Mushuk: Metaforik ma'no: nozik, muloyim, ehtiyotkor.

Misol: U mushukday muloyim va mehribon.

5. Qo'ng'iz: Metaforik ma'no: tinimsiz mehnatkash.

Misol: U qo'ng'izdek ishlaydi, hech qachon charchamaydi.

6. Parranda (qush): Metaforik ma'no: erkin, ozod, ba'zan xayolparast.

Misol: U qush kabi erkin ruhli.

7. Ilon: Metaforik ma'no: ayyor, makkor, hiyla ishlatadigan shaxs.

Misol: U ilon kabi hiyla ishlatadi.

8. Tovuq: Metaforik ma'no: qo'rqoq, mayda-chuyda narsalardan oson hayron bo'ladigan.

Misol: U yangi vazifalardan doimo qo'rqadi, tovuqday.

9. Baliq: Metaforik ma'no: suyuqlik, oson moslashuvchanlik, sir saqlovchi.

Misol: U baliqday sir saqlaydi.

Quyida fil, sher va qushlar ishtirokidagi iboralar keltirib o'tsam:

Filning xotirasi uzun — unutmaydigan, eslab qoladigan.

Shirning g'azabi — kuchli, qo'rqituvchi qahr.

Qush kabi uchib ketdi — tez harakat qilishi yoki ketib qolishi.

Bu metaforalar xalq og'zaki san'ati va kundalik muloqotda keng tarqalgan.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadi-ki, ikki tilda zoonimik metaforalar antropotsentrik xususiyatga ega. Biroq o'zbek tilida ular ko'proq axloqiy baho berish vositasi sifatida, nemis tilida esa psixologik tavsif afzalroqdir.

Xulosa. Nemis va o'zbek tillarida zoonimlarning metaforik qo'llanilishi umumiy konseptual asosga ega bo'lsa-da, ularning semantik va pragmatik talqini madaniy omillar bilan belgilanadi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy leksikologiya, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, zoonimik metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press. pp. 3-9, 52-55
2. Lakoff, G. (1993). *The Contemporary Theory of Metaphor*. In: *Metaphor and Thought*. Cambridge: Cambridge University Press. Pp. 202-207, 244-247
3. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press. Pp. 37-43, 200-205
4. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press. Pp. 15-21, 102-108
5. Heringer, H. J. (2015). *Interkulturelle Kommunikation*. Tübingen: A. Francke Verlag. S. 126-159
6. Bußmann, H. (2008). *Lexikon der Sprachwissenschaft*. Stuttgart: Kröner Verlag.
7. Burger, H. (2010). *Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen*. Berlin: Erich Schmidt Verlag. S. 14-20, 62-68
8. Dobrovolskiy, D., Pirainen, E. (2005). *Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives*. Oxford: Elsevier.
9. Телия, В. Н. (1996). *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Москва: Школа «Языки русской культуры». С. 32-40, 105-110
10. Маслова, В. А. (2001). *Лингвокультурология*. Москва: Академия. С. 27-35, 87-92
11. Апресян, Ю. Д. (1995). *Избранные труды. Том II. Интегральное описание языка*. Москва: Языки русской культуры. С. 67-74, 112-118
12. Раҳматуллаев, Ш. (2006). *Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати*. Тошкент: Ўқитувчи. Б. 120-145
13. Нурмонов, А. (2012). *Ўзбек тилшунослиги масалалари*. Тошкент: Фан. Б. 45-52
14. Саидов, Қ. (2018). *Ўзбек тили лексикологияси*. Тошкент: Университет. Б. 133-140
15. Dudenredaktion (2023). *Duden – Deutsches Universalwörterbuch*. Berlin: Dudenverlag. S. 80-100, 200-300, 500-550